

**Guliston davlat universiteti v.b  
professori Sharapova Saboxat  
Djabbarovna taqrizi ostida**

**Davronova Dilnoza Istamovna**  
GulDU, Psixalogiya yo‘nalishi talabasi  
[davronovadilnoza8119@gmail.com](mailto:davronovadilnoza8119@gmail.com)  
**Ravshanov Sobir Abdimalik o‘g‘li**  
GulDU, Pedagogika va psixologiya  
kafedrası o‘qituvchisi  
[sobirravshanov3@gmail.com](mailto:sobirravshanov3@gmail.com)

---

## **IJTIMOY TARMOQLARNING IJOBiy VA SALBIY TARAFLARI**

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada internet va ijtimoy tarmoqlarning ijobiy va salbiy taraflari, inson ijtimoiy hayotiga ta’siri va omillari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Internetning ta’siri, axborot , zamonaviy sivilizatsiya ,virtual mulqot , elektron tijorat , stress.

## **ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЕ И ОТРИЦАТЕЛЬНЫЕ СТОРОНЫ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ**

**Аннотация:** В статье рассматриваются положительные и отрицательные стороны Интернета и социальных сетей, их влияние и факторы на социальную жизнь человека.

**Ключевые слова:** влияние Интернета, информация, современная цивилизация, виртуальное общение, электронная коммерция, стресс.

## **POSITIVE AND NEGATIVE SIDE OF SOCIAL NETWORKS**

**Abstract:** This article discusses the positive and negative aspects of the Internet and social networks, their impact and factors on human social life.

**Keywords:** The impact of the Internet, information, modern civilization, virtual communication, e-commerce, stress.

---

Hozirgi kunda butun dunyo bo‘yicha ko‘pgina insonlar ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanib kelmoqda. Bu insoniyat uchun juda ko‘p sohalarda keng imkoniyatlar ochib berdi. Lekin afsuski har doim ham ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish biz uchun foydali bo‘lmaydi. Bugun ijtimoiy tarmoqlarning foydali va zararli tomonlari haqida ma’lumotlar berilgan. Ijtimoiy tarmoqlarsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin. Har kuni ertalab o‘rnimizdan turganimizda ko‘p hollarda albatta telefonimizni qo‘limizga olamiz va telegram, instagram yoki facebook ga kiramiz. Bulardan foydalanishning ko‘pgina avfzalliklari bor. Biz bu ijtimoiy tarmoqlar orqali ko‘pgina kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz, yangi do‘stlar orttirishimiz, yangiliklardan xabardor bo‘lishimiz, yangi narsalar o‘rganishimiz, do‘stlarimiz bilan suxbatlashishimiz mumkin. Hattoki hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar o‘z bizneslarini rivojlantirish imkoniyatiga ega. Ular o‘z maxsulotlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama qilib brendlarini tanitish, o‘zlari uchun xaridorlar avditoriyasini yig‘ish va yangi maxsulotlarini xaridorlarga e’lon qilishlari mumkin. Bu albatta ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning biz uchun avfzalliklari. Ammo bilamizki har bir yaxshi narsaning yomon tomoni bo‘lganidek ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning ham o‘ziga yarasha yomon tomonlari bor. Ko‘pincha biz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni me’yoridan oshirib yuboramiz va ko‘p vaqimizni yo‘qotib qo‘yamiz. Vaholanki, bizda boshqa muhim

vazifalar yetarlicha bo'ldi va biz bu vazifalarni yaxshi bajara olmaymiz yoki umuman bajarmaymiz. Bu albatta juda yomon. Ijtimoiy tarmoqlar biz uchun juda muhim bo'lishiga qaramasdan ulardan har doim ma'lum bir maqsad bilan foydalanish kerak, aks holda biz shunchaki ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lib qolishimiz mumkin.

Axborot asrida zamonaviy texnologiyalar hayotimizga tobora ko'proq kirib boryapti. Bugun hatto bog'cha tarbiyalanuvchisi ham mobil telefondan, undagi ilovalar va internetdan foydalanishni o'rganib olyapti. Kattayu kichik orasida internetdan foydalanuvchilar, vaqtini ko'proq u bilan o'tkazuvchilar ortyapti. Kelajak hayotni internet va hali kashf etilmagan yuqori texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. To'g'ri, ular ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega. Biroq yuksak texnologiyalardan unumli foydalanmaslik yoki yoshlarga olabo'ji qilib ko'rsatish faqat va faqat zarar keltiradi, xolos.

Biz ongli ravishda sotsial tarmoq a'zosi bo'la turib, real hayot va virtual hayotni farqlay bilishimiz lozim. Kun sayin jadal rivojlanib borayotgan axborot asrida zamonaviy texnika vositalaridan foydalanmaslikning yoki ularga murojaat etmaslikning hech bir iloji yo'q. Chunki, inson dunyoqarashining shakllanishida, ma'naviy olamining yanada kengayishida, ayniqsa kompyuter texnologiyasi asosiy vosita rolini bajarayotgan. Bu bir tomondan quvonarli holat. Bugungi kunda, biz yoshlar, mana shunday katta imkoniyatlardan xohlagancha foydalanib, o'qish yoki ish davomida vaqtimizdan ancha unumli foydalanmoqdamiz. Hozirgi kun nuqtai nazar bilan qaraydigan bo'lsak, allaqachon global tarmoqqa aylanib ulgurgan internet o'zining tezkorligi chegara bilmasligi bilan ommaviy axborot vositalari orasida eng muhim sohaga aylanib ulgurdi.

Yuqoridagi fikrlar ijtimoiy tarmoqlarga ham tegishli. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ham oltin qoidaga — me'yorni unutmashlik shartiga amal qilish zarur. Keling, ularning ijobiy jihatlari haqida mushohada yuritamiz.

1. IZLASH VA MULOQOTDAGI QULAYLIK Ijtimoiy tarmoqlarda video, audio, surat, biror-bir shaxs yoki maslakdoshlarni topish juda oson. Bunday saytlarda foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tish chog'i ko'pincha ismi sharifi, tug'ilgan vaqti, yashash manzili, o'qigan, ishlagan joylari va ayni damdagi faoliyati haqida ma'lumotlar kiritadi.
2. Axborot topish va almashishdagi yengillik. Ijtimoiy tarmoqlarda biror mavzudagi axborotni yengillik bilan topish mumkin. Deylik, salomatlik sohasiga qiziqqan kishi ayni shu yo'nalishdagi kanal va guruhlariga a'zo bo'lishi mumkin. Turli sohalarda maslahatlar olish, kerakli bilim va tasavvurlar hosil qilish imkoniga ega.
3. Shaxsiy tarbiya, o'z-o'zini rivojlantirish vositasi. Ijtimoiy tarmoqlarning eng maqtoqli, ahamiyatli jihatlardan biri — ilm olish, kasb-hunar o'rganishdagi beqiyos yordamidir. Kundalik turmushda duch kelinadigan turli yumushlarni bajarishni ham internet, xususan ijtimoiy tarmoqlar yordamida oson o'zlashtirish mumkin.
4. Biznes yuritishda beminnat yordamchi. Bugun juda ko'p savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanyapti. Elektron tijorat rivojlangan dunyoda keng tarqalgan. Bugun birgina telegram orqali ishbilarmonlik faoliyatini misli ko'rilmagan darajada yuksaltirib yuborayotganlar talaygina.

Olimlarning fikricha, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarning bo'sh vaqtini olib qo'yadi, ular bu vaqt davomida real insonlar bilan muloqot qilishlari mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar hamkasblar va do'stlar hayotini kuzatish imkonini beradi, buning natijasida odamlarda hasad yoki o'z hayotidan qoniqmaslik hissi paydo bo'lishi mumkin. Biz tabiatimizga ko'ra, ijtimoiy mavjudotimiz, biroq zamonaviy hayot bizni yaqinlashtirish o'rniga bir-birimizdan uzoqlashtirmoqda. Aftidan, ijtimoiy media muloqotdagi bo'shliqni to'ldirish imkonini beradi, biroq tadqiqot bu insonlar umid qilishi mumkin bo'lgan yechim emasligini ko'rsatdi.

Biz maqola yozish davomida talaba-yoshlar ortasida internetga qamramlik darajasini aniqlash maqsadda psixologiya yo‘nalishi talabalaridan 1994-yilda ishlab chiqilgan Kimberly Yang so‘rovnomasini (Internetga qamramlik diagnostikasi) oldik. Rus psixologi V.A.Loskutova tomonidan takomillashtirilgan Kimberli Yang texnikasi asosida test 20 ta savolni o‘z ichiga oladi va respondentning Internetga qanday aloqasi borligini aniqlash imkonini beradi (befarqlik bosqichidan qamramlikkacha). So‘rovnoma davomida quyidagi natijalar aniqlandi.

**1-jadval**

<b>№</b>	<b>Kurs</b>	<b>Siz aqlli Internet foydalanuvchisiz. (20-49 ball)</b>	<b>Internetga haddan tashqari qiziqish bilan bog‘liq muammolaringiz bor. (50-79 ball)</b>	<b>Internetdan foydalanish hayotingizda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. (80-100 ball)</b>
1	1-kurs	18	3	1
2	2-kurs	16	6	0
3	3-kurs	19	3	0

Yuqoridagi internetga qamramlik darajasini aniqlash so‘rovnomasiga 3 ta kurs talabalaridan jami 66 nafar talabadan so‘rovnoma olindi. 1-kurs talabalarining 18 nafari ijobiy, aqlli internet foydalanuvchi ekanligi namoyon bo‘ldi. 3 nafarida esa internetga haddan tashqari qiziqish bilan bog‘liq muammolaringiz borligi anqilandi. 1 nafar talabada esa internetdan foydalanish hayotingizda jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi aniqlandi.

2-kurs talabalarining 16 nafari ijobiy, aqlli internet foydalanuvchi ekanligi namoyon bo‘ldi. 6 nafarida esa internetga haddan tashqari qiziqish bilan bog‘liq muammolaringiz borligi anqilandi. Internetdan foydalanish hayotingizda jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi aniqlanmadi.

3-kurs talabalarining 19 nafari ijobiy, aqlli internet foydalanuvchi ekanligi namoyon bo‘ldi. 3 nafarida esa internetga haddan tashqari qiziqish bilan bog‘liq muammolaringiz borligi anqilandi. Internetdan foydalanish hayotingizda jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi aniqlanmadi.

Doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqlarda bo‘lish bizning miyamiz va aqliy qobiliyatimiz uchun yaxshi faoliyat emas. Buning o‘rniga kitob o‘qish yoki do‘stlar bilan sayr qilish bilan shug‘ullanishimiz bizga ko‘proq foyda beradi. Ijtimoiy tarmoqlarda bo‘lishning barcha salbiy tomonlari bilan bir qatorda ijobiy tomonlari ham bor. Lekin birinchi navbatda qachon to‘xtash kerakligini va undan kerakli maqsadda oqilona foydalanish kerak. Internet zamonaviy svilizatsiyaning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Hozirgi yoshlar internetga asosiy axborot manbai va asosiy aloqa vositasi sifatida qarashadi.

Internet sababli bolalar kitob o‘qishni to‘xtatdilar. Vaqt o‘tishi bilan ularning dunyoqarashi, fikrlash darajasi qisqarib boradi. Ular faqat chat va forumlarda virtual muloqot bilan cheklanadilar. Ular haqiqiy hayotda har xil davralarda masalan do‘stlari bilan suhbatlarida, ilmiy uchrashuvlarda ma‘ruza paytida yoki yaqin odamlarining tug‘ulgan kunlarida nutq so‘zlashga, tabrik yo‘llashga qiynaladilar. Ular o‘z fikrlarini xulosa qilib ayta olmaydilar, fikrlari tarqoq holda umumlashmagan holatda bo‘ladi. Bunday qiyin vaziyatlarga tushib qolmaslik uchun kitob o‘qib o‘z fikr doiramizni kengaytirib borishimiz kerak deb o‘ylaymiz.[3]

**Xulosa:** Maskur maqolada internet va ishtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy taraflarini bilib oldim . Albatta biz hayotimizni ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaymiz lekin , uning ham

o‘ziga yarasha salbiy taraflari bor . Shu uchun ishtimoiy tarmoqlarga sarflaydigan vaqtingizni ko‘proq kitob oqishga sarflasangiz o‘zingiz uchun ham juda yaxshi bo‘ladi. Albatta ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy taraflari ham bor lekin , biz ijtimoiy tarmoqlarga kiradigan vaqtimizni to‘g‘ri belgilab olib vaqtimizdan t o‘g‘ri foydalansak o‘zimiz uchun juda yaxshi bo‘ladi. Shu uchun biz avvalan bor vaqtimizni to‘g‘ri sarflashimiz kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida. 2016-yil 14-sentabr.
2. Qodirov U. Yoshlar va axboriy psixologik xavfsizlik. 2014-yil 153 b.
3. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya T.: “Movaraunnahr”, 2016. 672 b.
4. Тоффлер Э. Третья волна. Москва, 2010. с.795. 8. Rajabov H.I “Globalashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiyamaliy konferentsiya materiallari T.: “Fan va texnologiya” 2020 yil, B-207
5. Ташметов, Т. Х. (2020). Миллий ғояни ёшлар онгига сингдиришнинг замонавий усуллари. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 326-331.
6. Alimov B. S. Yoshlarning ijtimoiy tarmoklar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli // Yoshlar innovation faolligini oshirishning dolzarb vazifalari: Resp. ilmiy-amaliy konf. material. to‘p. 2019 yil 27 aprel. — Toshkent, 2019. — B. 75-78
7. Mirzayev Jamshid Turdalievich. SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL OPPORTUNITIES OF INFORMATION AND PSYCHOLOGICAL SECURITY IN ADOLESCENTS. International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa, Turkey. July15th2022. 45-48 P <http://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1279/1161>